

XAMSACHILIK AN'ANASI VA ISHQIY DOSTONLARNING UNDAGI O'RNI
(Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" hamda Abdurahmon
Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostonlari misolida)

Tohirova Fariza Rustamjon qizi,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
toxirovafariza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdan Xamsachilik an'anasi Sharq adabiyotining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u turli davrlarda ijod qilgan shoirlarning beshlik asar yaratish an'anasini ifodalashi ko'rib o'tiladi. Ushbu an'ana, ayniqsa, ishqiy dostonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular orqali muhabbat, axloqiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar va hayotiy haqiqatlar aks ettiriladi. Xamsachilikning bir necha vakillari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab shoirlarning ijodida ishqiy dostonlar markaziy o'rin tutgan bo'lib, bu asarlar adabiy-estetik jihatdan yuksak darajada namoyon bo'lgan. Ushbu maqolada xamsachilik an'anasining shakllanishi, rivojlanishi va undagi ishqiy dostonlarning o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xamsachilik, an'ana, ishqiy doston, Sharq adabiyoti, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, adabiy-estetik tahlil.

HAMSE GELENEĞİ VE AŞK DESTANLARININ BUNDAKİ YERİ
(Ali Şir Nevai'nin "Ferhat ve Şirin" ile Abdurrahman Cami'nin
"Yusuf ve Züleyha" destanları örneğinde)

Tohirova Fariza Rustamjon qizi
Semerkand devlet universiteti temel doktora öğrencisi

Özet. Bu tezde, Hamsacılık geleneğinin Doğu edebiyatının önemli yönlerinden biri olduğu ve farklı dönemlerde yaratılan şairlerin beşlik eser yaratma geleneğini temsil ettiği ele alınmaktadır. Bu gelenek, özellikle aşk destanlarıyla yakından ilişkilidir ve bunlar aracılığıyla aşk, ahlaki değerler, insani nitelikler ve yaşam gerçekleri yansıtılır. Beşlik sanatının birkaç temsilcisi olan Abdurrahman Jami, Ali Şir Nevai ve diğer birçok şairin eserlerinde aşk destanları merkezi bir yer tutar ve bu eserler edebi ve estetik açıdan yüksek bir düzeyde ifade edilir. Bu makalede, hamsacılık geleneğinin oluşumu, gelişimi ve aşk destanlarının rolü analiz edilecektir.

Anahtar kelimeler: hamsacılık, gelenek, aşk destanı, Doğu edebiyatı, Abdurrahman Cami, Alişir Nevai, edebi-estetik analiz.

ТРАДИЦИЯ ХАМСА И РОЛЬ ЛЮБОВНЫХ ДАСТАНОВ В НЕЙ
(На примере поэм Алишера Навои «Фархад и Ширин» и
Абдурахмана Джами «Юсуф и Зүлейха»)

Тохинова Фариза Рустамжон кизи,
Самаркандский государственный университет, докторант

Аннотация. В данном тезисе рассматривается традиция хамса как одно из важных направлений восточной литературы, выражающее традицию создания пентетики произведений поэтами разных эпох. Эта традиция особенно тесно связана с любовными поэмами, через которые отражаются любовь, нравственные ценности, человеческие качества и жизненные истины. В творчестве нескольких представителей хамса, таких как Абдурахман Джами, Алишер Навои и многих других поэтов, любовные поэмы занимают центральное место, и эти произведения достигают высокого литературно-эстетического

уровня. В данной статье анализируется формирование и развитие традиции хамса, а также роль любовных поэм в ней.

Ключевые слова. Хамса, традиция, любовная поэма, восточная литература, Абдурахман Джами, Алишер Навои, литературно-эстетический анализ.

**THE TRADITION OF KHAMSA AND THE ROLE OF ROMANTIC EPICS WITHIN IT
(Illustrated by Alisher Navoi's "Farhod and Shirin" and
Abdurahman Jami's "Yusuf and Zulaikha" epics)**

Tohirova Fariza Rustamjon qizi,
doctoral student at Samarkand state university

Abstract. This thesis examines the Khamsa tradition as one of the significant trends in Eastern literature, which represents the practice of creating quintets by poets from various periods. This tradition is particularly closely associated with romantic epics, through which love, moral values, human virtues, and life truths are reflected. Romantic epics occupied a central place in the works of several representatives of the Khamsa tradition, including Abdurahman Jami, Alisher Navoi, and many other poets, with these works demonstrating high literary and aesthetic quality. This article analyzes the formation and development of the Khamsa tradition and the role of romantic epics within it.

Keywords: Khamsa tradition, romantic epic, Eastern literature, Abdurahman Jami, Alisher Navoi, literary-aesthetic analysis.

Xamsachilik Sharq adabiyotida o'ziga xos adabiy hodisa bo'lib, u epik an'analarning chuqur ildizlariga ega. O'zida Sharqning mumtoz hikmatsevarligi, ishqning ilohiy yolqini-yu betakror hayotiy-falsafiy qarashlarning badiiy in'ikosini mujassamlashtirgan ushbu jamlanma turkum doimo e'tibor va e'tirofda. Garchi ilk "Xamsa" Nizomiy Ganjaviy tomonidan aniq bir niyat va reja asosida yozilmagan bo'lsa-da oxir-oqibat bu jamlanma zamonlar silsilasining eng mashhur va mazmundor topilmasiga aylandi. Aynan Xusrav Dehlaviyning "Xamsa"sidan so'ng an'ana tusiga kirgan xamsanavislik o'z taraqqiyot yo'li davomida yuzlab havaskorlarni ko'rgan bo'lib, ularning ayrimlari bu vazifani mukammal uddalay oldilar. Bu borada Nizomiy Ganjaviyning beshlik asarlari keyingi shoirlar uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Xamsachilik an'anasining rivojlanishi jarayonida har bir shoir o'ziga xos uslub va badiiy yondashuvni olib kirdi. Ammo xamsalardagi didaktika va axloqiy-falsafiy mazmun masalasi ustuvor bo'lib qolaverdi, xamsachilikdagi har qanday doston bu qat'iy tamoyil asosiga quriladi. Xamsanavislikda bu borada ishqiy dostonlar muhim o'rin egallashini ularning hajman kattaligi va mazmunan kengligi orqali ham ko'rish mumkin.

Umuman olganda, ushbu turkum dostonlarining barchasi bir-biridan mazmun ko'lam va uslubi bilan ajralib turadi, biroq aynan ishqiy mavzudagi dostonlar syujet jihatdan bir-biriga juda o'xshash. Birgina Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlangan dostonlarning soni Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviydan boshlab 100 dan oshadi, barchasiga asos esa Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostonidir. Garchi ularda syujet o'xshash bo'lsa-da har bir ijodkor unda o'z so'zini aytishga intilgan. Bu borada esa Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni haqiqiy yangilik edi. Ushbu doston xamsachilik tarkibida muhim o'rin tutib, unda nafaqat muhabbat mavzusi yoritiladi, balki insoniy qadriyatlar, axloqiy ideallar va falsafiy mushohadalarni ham aks ettiradi. Ushbu dostonda sevgi ramziy ma'noga ega bo'lib, u ilohiy ishq va ma'rifiy haqiqat bilan uyg'unlashtiriladi. Farhod va Shirin o'rtasidagi muhabbat oddiy dunyoviy sevgi emas, balki ilohiy haqiqat sari yo'l sifatida aks ettiriladi. Farhodning Shirin uchun tosh kesib, suv chiqarishi ramziy ma'noga ega bo'lib, u muhabbat yo'lida insonning jismoniy va ma'naviy sinovlardan o'tishini anglatadi.

Farhod g'am tortar, magar oshiq ani,

Kim najot istar anga dard ichra oni.[3, 86 b]

Bu misralar orqali Navoiy muhabbatni insonni poklaydigan va uni yuqori martabaga ko'taradigan kuch sifatida tasvirlaydi. Farhod muhabbat tufayli nafaqat fidoyi bo'ladi, balki ma'naviy yetuklik sari yo'l oladi. Farhod obrazi faqatgina oshiq qahramon sifatida emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi, insoniyatga manfaat yetkazuvchi shaxs sifatida ham gavdalanadi. Uning tog'ni teshib suv chiqarishi – muhabbatning jamiyat uchun ham foydali bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu yerda sevgi va fidokorlik shunchaki shaxsiy his-tuyg'u emas, balki umumbashariy qadriyat sifatida talqin etiladi.

Farhod erdi, senga shodlik tuhf,

Biroq dunyo ichra bo'lmadi vafo.[3, 91 b]

Bu satrlarda Navoiyning dunyo va muhabbat haqidagi falsafiy qarashlari ko'rinadi. Muhabbat fidokorlik va shijoat orqali insonni yuksaklikka olib chiqadi, biroq dunyoning bevafo ekani ham unutilmaydi. Dostonning badiiy jihatlari ham nihoyatda go'zal. Navoiy tashbeh va tamsillardan mohirona foydalanadi. Shirin go'zallik timsoli bo'lsa, Farhod kuch-qudrat va matonat timsolidir. Lekin muhabbat faqat tashqi husn yoki jismoniy kuch emas, balki ruhiy kamolot bilan ham bog'liq ekanini shoir ko'rsatib o'tadi. Ishq bahor kabi ko'ngillarni ravshanlashtiradi, lekin har qanday bahorning o'z qish fasli borligi kabi, har bir muhabbat ham sinovlarga duch keladi. Bu esa inson hayotidagi real voqelikni aks ettiradi. Navoiy Farhodni ilohiy ishqqa intiluvchi oshiq(solik) Shirinni esa ilohiy ishq mazhari sifatida gavdalandiradi va bu ishqni doston nihoyasiga qadar ezgulik yo'lida tarbiyalab boradi: "Majoziy ishq jarayonida oshiq obdan sinovdan o'tadi, uning tani bir quruq xasday bo'lib qoladi va haqiqiy ishq "barqi choqilg'och", zumda yonib kulga aylanadi, ya'ni oshiq ruhi qutulib, abadiyat – vahdoniyatga erishadi. Farhod ana shu jarayonni bosib o'tishi, ishq majoziy o'tida o'rtanmog'i darkor, deb xabar beradi Suqrot. Ammo ishq majoziy "mazhar"siz sodir bo'lmaydi" [4, 105 b.]. Oshiq mazharni ko'rgach o'zligini unutadi, ishq o'tidagi yonish-kuyishlar, mazhar firog'i uning qalbini poklaydi: "Farhodning majoziy ishq uchun "mazhar" Shirindir. Mazhar Vujudi Mutlaqning sifatlari va beintiho Husnning qudratini namoyish etadi, u mir'ot yoki oraz, ilohiy fayz ayonlashgan obyekt. Husn va Ishq tortilishi (Navoiy buni "kashish" deydi), o'zaro mojarolari ushbu dostonida Farhod va Shirin timsolida davom etgan [7, 95 b.]. Navoiy dostonida Farhod misolida har kim intilishi lozim bo'lgan ilohiy muhabbatni, axloqiy yetuklikni va jamiyatdagi ma'naviy tamoyillarni yoritib beradi. Navoiy ijodida ishqiy dostonlar nafaqat romantik tuyg'ularni, balki ma'naviy kamolot sari intilishni ifodalaydi.

Xamsanavislikning 3 mashhur darg'alari aynan shu mavzu va deyarli bir xil obrazlarni asos qilib oldilar, biroq Abdurahmon Jomiy bu obrazlarning "eskirgan"ligini inobatga olib, yangi va haqqoniyroq qissani tanlashga qaror qiladi: "... muallif "Yusuf va Zulayho" syujetiga murojaat etar ekan, nega aynan uni tanlaganligini, uning ustunligi nimada ekanligini imkon qadar kuchliroq va asosliroq tarzda ko'rsatishga intiladi. Bu borada Jomiyning ikkita rad qilib bo'lmaydigan argumenti mavjud:

– "ahsan vajah" (eng go'zal sabab) ya'ni Allohning o'zi eng go'zal deb atagan qissani chetlab boshqa mavzuda asar yozish noo'rin;

– har qanday ishqiy sujetning ikkita asosi mavjud, bu ma'shuq husni va oshiq iztiroblari, dardi. Jomiyning talqinicha, ayni shu ikki jihatda Yusuf va Zulayho qissasi tengsiz". Bunda dostonning o'zida shunday yoziladi:

Zi ma'shuqon chu Yusuf kas nabuda,

Jamolash az hama xubon fuzuda.

Zi xubon har kiro soni nadonand,

Zi avval Yusufi sonish xonand.

Nabud az oshiqon kas chun Zulayho,

Ba ishq az jumla bud afzun Zulayho... [6, 13 b.]

Mazmuni: Ma'shuqlar orasida Yusufga teng keladigani yo'q, zero uning jamoli barcha go'zallardan ustundir. Olamda birinchi bo'lgan har qanday go'zalni "ikkinchi Yusuf" deb atashadi. Oshiqqlar orasida Zulayxodek kishi yo'q, Ishqda u barchadan ustun edi. Doston o'zining badiiy

nafosati, tasavvufiy g'oyalari va yuksak axloqiy-ma'naviy mazmuni bilan ajralib turadi. Jomiy dostonida ishq nafaqat dunyoviy, balki ilohiy ishq sifatida tasvirlanadi. Yusuf Zulayhoni emas, balki Allohning ishqini afzal biladi. Zulayho esa o'z ishqining chin ma'nosini anglab, ilohiy ishqqa yetishadi. Garchi bir turkum doirasida bo'lsa-da ushbu ikki doston mazmun va ilohiy ishqqa intilishda mushtarakliklarga ega. Xuddi Farhod kabi Yusuf obrazi ham go'zallik, halollik, sadoqat va sabr timsoli bo'lib, u har qanday vasvasaga qarshi tura oladigan barkamol inson sifatida tasvirlangan.

Zulayho obrazi dastlab nafsiga bo'ysunsa-da, keyinchalik to'g'ri yo'lga kirib, Allohga ixlos bilan sig'inadi. Dostonning asosiy maqsadi insonning kamolotga erishishi, hayotiy sinovlarni sabr va iymon bilan yengib o'tishi muhimligini ko'rsatishdir. Doston Nizomiy, Amir Xusrav va boshqa mumtoz shoirlarning ishqiy dostonlari an'alariga yaqin bo'lsa-da, Jomiy uni o'zining falsafiy-tasavvufiy qarashlari bilan boyitgan. Xamsachilik doirasidagi ishqiy dostonlar nafaqat mazmun, balki shakl va badiiy san'at vositalari jihatidan ham yuksak darajada namoyon bo'ladi. Shoirlar she'riy san'atlar, ramz va tamsillar yordamida sevgi tushunchasini chuqur falsafiy tahlil qilishga harakat qilganlar. Bu asarlar obrazlilik, majoziy ifoda va musiqiy ohangdorlik bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda ham xamsachilik tarkibidagi ishqiy dostonlar insoniy fazilatlarini ulug'lash, ishqning inson ruhiy olamidagi o'rnini anglash nuqtayi nazaridan ahamiyatini yo'qotmagan. Ularda tasvirlangan zohiriy va botiniy muhabbat hali hanuz inson shuuri hamda ko'nglini poklovchi unsur sifatida e'tirof etiladi. Ulardagi har bir obraz o'quvchiga ezgulikning go'zal qirralarini ko'rsatadi. Zulayho obrazi ishq ilohiy ko'ngilni tubanlikka emas, ezgulikka yo'naltirishini isbot etsa, Farhod o'z sevgisidan nafaqat o'zi uchun, balki butun jamiyatga foyda chiqarishi bilan ajralib turadi.

Ushbu dostonlar xamsachilik an'anasining nafaqat badiiy, balki falsafiy va axloqiy jihatdan ham yuksak namunasi bo'lib, uning mohiyatini zamonaviy hayot bilan bog'lash mumkin. Muhabbat va fidokorlik bugungi kun uchun ham dolzarb mavzuligicha qolmoqda.

Xamsachilik an'ansi Sharq adabiyotida yuksak badiiy va falsafiy qadriyatlarni aks ettiruvchi yo'nalish bo'lib, uning tarkibidagi ishqiy dostonlar muhabbatni faqat romantik tuyg'u sifatida emas, balki insoniy kamolot sari yetaklovchi kuch sifatida talqin qiladi. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni ushbu an'ananing yorqin namunasi bo'lib, unda ishq insonni ruhiy yetuklik, fidokorlik va jamiyatga manfaat yetkazish sari undovchi omil sifatida gavdalanadi. Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" hamda Alisher Navoiyning "Farhod Va Shirin" dostonlari turli mavzularda yaratilgan bo'lsa-da, xamsalarning ikkinchi dostonlari sifatida muayyan tipologik mushtarakliklarga ega. Bu avvalambor ishq, oshiq va ma'shuq tushunchalarining badiiy talqini bilan bog'liq. Shuningdek, ularda ifodalangan komil inson ideali hamda ilohiy ishqqa intilish g'oyalari nafaqat o'sha davr uchun, balki bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir. Xamsalarning nafaqat ilmiy, shu qatori axloqiy-falsafiy ahamiyati ham beqiyos ekanligi shu o'rinda o'z isbotini topadi.

Zamonaviy adabiyot va madaniyatda ham xamsachilik an'ansi turli shakllarda davom etmoqda. Sevgi va fidoyilik, go'zallik va ma'naviyat, hayot va sinovlar kabi mavzular hozirgi davr ijodkorlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, xamsachilik faqat tarixiy adabiy meros emas, balki har bir davrda o'z ma'naviy va axloqiy dolzarbligini saqlab qoladigan ulkan madaniy hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiyev A. Alisher Navoiy poetikasi. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. 288 b.
2. Jo'rayev N. Alisher Navoiy dostonlari tahlili. – Toshkent: "Yozuvchi", 1985. 97 b.
3. Navoiy A. Xamsa. Toshkent, Fan, 1991. 544 b.
4. Tohirov S. Xamsanavislik an'ansi va Alisher Navoiy "Xamsa"si. O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamDU nashri, 2020, 224 b.
5. G'afurov A.. Sharq adabiyoti va xamsachilik an'ansi. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2010, 110 b.
6. Жомий. Жилди 4 («Юсуф ва Зулайхо»). – Душанбе: «Ирфон», 1984. 430 б.

7. Комилов Н.. Хизр чашмаси. –Тошкент: “Маънавият”, 2005. 320 б.